# Sohalarga oid yangi atamalarni ko‘rib chiqing!

Xorijiy atamalarni o‘zbekcha muqobillariga almashtirish bo‘yicha tegishli tashkilotlar ishchi guruhlari va jamoatchilik yuborgan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Atamalar komissiyasining ishchi kengashi – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari tomonidan ko‘rib chiqildi.

Ishchi organ galdagi taqdim etilayotgan atamalarning milliy muqobillari bo‘yicha boshqa fikr va mulohazalarni  ham mamnuniyat bilan qabul qiladi va ko‘rib chiqadi. O'z fikr-mulohazalaringizni izohda yozib qoldiring!
Tilimizga befarq bo‘lmang!

**Yangi so‘z va atamalar yuzasidan TAKLIFLAR**

| T/r | Atama nomi | Yangi so‘z va atama qo‘llangan manba *(nomi sanasi va raqami)* | Yangi so‘z va atamaning ma’nosi (izoh) *(qaysi tildan olingan)* | Yangi so‘z va atamani o‘zbek tilida ifodalovchi so‘zlar | Rasmiy iste’molga kiritish bo‘yicha taklif | Qaysi vazirlik (idora) tomonidan taklif qilingan |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Аккомпанемент | San’at va madaniyat atamasi. | Akkompanement (fr. *accompaniment*, accompagner – jo‘r bo‘lmoq) – ashula yoki musiqaga jo‘r bo‘lish. | Jo‘rnavozlik | **Jo‘rnavozlik** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; o‘zbek tilida bu ma’noda qo‘llanadi) | Madaniyat vazirligi |
| 2. | Аномал | O‘zbekistonda joriy yilning iyul va avgust oyi boshlarida anomal issiqlik davrlari kuzatilishi mumkin. | Anomal (yun. anomalia) – me’yor(norma)dan chetga chiqish (og‘ish) | G‘ayritabiiy | **Noodatiy** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; o‘zbek tilida bu ma’noda qo‘llanadi) | Jamoatchilik taklifi |
| 3. | Антракт | San’at va madaniyat atamasi | Antrakt (fr.: *Entr’acte* – entre-ora, oraliq, o‘rtasida; akt-ish, harakat) – spektakl pardalari yoki konsert bo‘limlari orasidagi tanaffus; teatrda ikkinchi va undan keyingi pardalar boshlanishi oldidan chalinadigan musiqali muqaddima. | Tanaffus | **Tanaffus** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; o‘zbek tilida bu ma’noda qo‘llanadi) | Madaniyat vazirligi |
| 4. | Арерсцена | San’at va madaniyat atamasi | Aryerssena (fr.: *arrière-scène*, arrière – orqa) – sahnaning orqa pardasi ortidagi maydon. | Sahnaorti | **Sahnaorti** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Madaniyat vazirligi |
| 5. | АСКУЭ (Автоматизированная система коммерческого учёта электроэнергии) | Prezidentning ushbu qarori bilan Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimiga (keyingi o‘rinlarda – EEHO va NQAT) 7 million iste’molchini ulash, 2021-yil yakuniga qadar EEHO va NQAT qamrovini 100 foiziga yetkazish belgilangan. | АСКУЭ (rus. Автоматизированная система коммерческого учёта электроэнергии) – EEHO va NQAT bu iste’molchilarga zamonaviy me’yoriy hujjatlar talablariga va energetika sohasini isloh qilish qoidalariga muvofiq elektr energiyasi iste’molini hisobga olish imkonini beruvchi texnik, dasturiy va tashkiliy yechimlar to‘plami. | ETHAT (Elektr energiyasini tijoriy hisoblashning avtomatlashtirilgan tizimi) | **ETHAT** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ |
| 6. | Банкет | Mehmonlar turli taomlar bilan boy banketdan bahramand bo‘lishdi. | Banket (fr. Banquet) – o‘tkir yoki shirin taom; lot. “banca”, ya’ni “stol” so‘zidan olingan. | Rasmiy mehmondorchilik | **Ziyofat** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; o‘zbek tilida bu ma’noda qo‘llanadi) | Jamoatchilik taklifi |
| 7. | Башмак | Temiryo‘l tizimida qo‘llanadigan atama. | Qadimgi turkiy so‘z bo‘lib, boshmoq, ya’ni oyoq kiyimi nomini bildirgan. Hozir kunda harakatlanayotgan vagonlar va boshqa turdagi harakatlanuvchi tarkibning tezligini kamaytirish yoki to‘xtatish uchun qo‘llanadigan moslama. Temiryo‘lchilikda vagon g‘ildiraklari ostiga qo‘yiladigan maxsus temir yoki boshqa materialdan yasalgan qurilmani anglatadi. | Boshmoq | **Boshmoq** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Transport vazirligi |
| 8. | БГС (Барабанные гранулиряторы – сушилки) | Biomassani quritish va maydalash liniyasining asosiy elementi. Xomashyoni quritish uchun mo‘ljallangan. | Tayyor texnologik yarim mahsulotni donalab quritib beruvchi qurilma. | DQU (Donalovchi quritish uskunasi) | **DQU** (Donalovchi quritish uskunasi) (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “O‘zkimyosanoat” AJ |
| 9. | Блокчейн (blockchain) | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2022-yildagi PF-113-son Farmoni. | Blockchain (ing.) – to‘siqlar zanjiri, ma’lum bir qonuniyat asosida qatorlashgan, bir-biriga bog‘langan to‘siqlar. | Блокчейн | **Zanjirblok** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 10. | Бонус | Bugun xaridorlarimiz uchun bonus e’lon qilganmiz. (ijtimoiy tarmoqdan olindi) | Bonus (lot.) – yaxshi, yaxshi sifatli, foydali. Keyinchalik bu so‘z ingliz tiliga o‘zlashib, “mukofot” ma’nosini olgan. | Qo‘shimcha siylov | **Siylama** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi |
| 11. | БПЛА (Беспилотный летательный аппарат) | Transport vazirining buyrug‘i, 2023-yil 12-iyulda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 1723-12. Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risidagi qonun (2012-yil 14-iyuldagi O‘RQ-701-son). | Uchuvchisiz uchadigan apparat – Uchuvchisiz parvozni amalga oshiradigan yoki to‘liq boshqa joydan masofadan turib boshqariladigan yoxud dasturlashtirilgan va parvozda to‘liq avtonom bo‘lgan havo kemasi (havo kemalari modellari va o‘yinchoq havo kemalari modellari bundan mustasno). | UUA (Uchuvchisiz uchadigan apparat) | **UHA** (Uchuvchisiz havo apparati) (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Transport vazirligi |

Активация W

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 12. | Брекет | Bugun tish shifokori qiyshiq tishlarimga breket taqadi. | Брекет (rus) – stomatologiyada qiyshiq tishlarni toʻgʻrilashda foydalaniladigan moslama. | Tish toʻgʻrilagich | **Tishsim** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 13. | Бренд | Koʻpchilik brendni faqat vizual narsa sifatida qabul qiladi: logotip, firma ranglari, naqshlar, belgilar yoki tilsimlardek. (ijtimoiy tarmoqdan olindi) | Brend (ing.: *brand* — tamgʻa, belgi, rend ) – tovar yoki xizmatni boshqa tovar yoki xizmatdan ajratib turuvchi nom. | Belgi, tamgʻa, nishona, iz, ifoda, alomat | **Xosnom** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 14. | Вебинар | Bu haqda toʻliq maʼlumotga ega boʻlishni istasangiz 3 kunlik vebinarga marhamat qiling. (ijtimoiy tarmoqdan olindi) | Webinar (ing. web – internet va seminar soʻzining birikmasi) – tarmoqda oʻtkaziladigan seminar. | Masofaviy seminar | **Vebmashgʻulot** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 15. | Вербал мулоқот | Axborot-kutubxona faoliyati atamasi | Verbal (lot. verbalis – ogʻzaki) – ogʻzaki muloqot shakli. | Ogʻzaki muloqot | **Ogʻzaki muloqot** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Madaniyat vazirligi |
| 16. | Вертолёт | Transport vazirligi hujjatlari hamda ogʻzaki nutqda koʻp uchraydi. | Vertolet (rus.) – aylanma parraklar yordamida tik koʻtarilish, uchish va qoʻnish xususiyatiga ega havo transporti. | Tikuchar | **Tikuchar** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 17. | ВК (Воздушный компрессор) | Havo kompressori – bu havoni siqish va uni pnevmatik uskunaga maʼlum bir bosim ostida yetkazib berishga asoslangan qurilma. | Gaz yoki gaz aralashmalarining bosimini oshirib beruvchi texnik qurilma. | HK (Havo kompressori) | **HK** (Havo kompressori) (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “Oʻzkimyosanoat” AJ |
| 18. | ВОЦ (водооборотный цикл) | Korxonaning suv aylanish yopiq quvurlar tizimi boʻlib, u issiqlik almashtirgichda – sovitish minorasida ishlatiladigan aylanma suyuqlikni sovitish uchun moʻljallangan. | Suv aylanishi – turli texnologik uskunalar yordamida sanoat ehtiyojlari uchun ishlatiladigan suvni sovitish va tozalash uchun moʻljallangan tizim. | SAT (Suv aylanish tizimi) | **SAT** (Suv aylanish tizimi) (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “Oʻzkimyosanoat” AJ |
| 19. | ГПЭС (Газопоршневая электростанция) | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.03.2021-yildagi PQ-5018-son. | Gaz porshenli elektr stansiyasi – porshenli ichki yonish dvigatelli generatsiya tizimi. U ikki turli energiya (issiqlik va elektr) ishlab chiqarishi mumkin va bu jarayon *kogeneratsiya* deyiladi. Gaz porshenli elektr stansiyasi tabiiy yonuvchan yonilgʻida va asosan gazda ishlaydi. | GPES (Gaz porshenli elektr stansiyasi) | **GPES** (Gaz porshenli elektr stansiyasi) (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ |
| 20. | Дайжест | 21-fevral kuni e’lon qilingan eng muhim yangiliklar dayjesti. Bugun dayjestimizda kuzating. (ijtimoiy tarmoqdan olindi) | *Dayjest* (ing.) – qisqa xabarlar. “Daily news digest” – kundalik yangiliklar qisqa hisoboti; financial digest – moliyaviy tahlil; research digest – tadqiqot xulosasi. | Qisqa bayon, maʼlumot bermoq. Kunlik yangiliklar sharhi Haftalik xulosa Tahliliy hisobot | **Qisqa xabarlar** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 21. | Дедлайн | “Loyihani topshirishning dedlayni juda yaqin”. (ijtimoiy tarmoqdan olindi) | Dedlayn (ing. deadline) – oxirgi muddat. | Oxirgi muddat, bajarish muddati | **Soʻngmuddat** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 22. | Декорация | Sanʼat va madaniyat atamasi | *Decoration* (fr.: decorer – bezamoq, bezatmoq) – sahnada tasvirlanayotgan voqea-hodisa oʻrni va sharoitini aks ettiradigan sunʼiy manzara, badiiy jihoz. | Bezak | **Sahnabezak** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Madaniyat vazirligi |
| 23. | Депозит | Depozitingizni ishonchli joyda kwpaytirishni istasangiz, bizning bankimizga murojaat qiling. (ijtimoiy tarmoqdan olindi) | Depozit (lot. depositum – omonat, asrab qoʻyilgan) – bankka qoʻyilgan omonatlar. | Omonat | **Omonat** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 24. | ДПО (Дробильно-помольное отделение) | Materiallarni maydalash va maydalash jarayonlarida, sanoat tarmoqlarida, qurilishda va ikkilamchi resurslarni qayta ishlashda qoʻllanadi. | Rus tilidan olingan. Maydalash-yanchish boʻlinmasi. Fosforit rudasini barabanli quritkichda quritib, tegirmonda maydalash va yanchish boʻlinmasi. | MYB (Maydalash-yanchish boʻlinmasi) | **MYB** (Maydalash-yanchish boʻlinmasi) (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “Oʻzkimyosanoat” AJ |
| 25. | ЕЭС (Единая электрическая система) | Yagona elektr energetika tizimi – bir yoki bir nechta mamlakatlarning katta hududlarini energiya bilan taʼminlash uchun ikki yoki bir nechta energiya tizimlarining kombinatsiyasi. Asosan, elektr energiyasi ishlab chiqaradi, tarqatadi va aylantiradi. | Bir yoki bir necha mamlakatlar ichidagi ulkan hududlarni energiya bilan taʼminlash uchun ikki yoki undan ortiq energiya tizimlarining kombinatsiyasi. | YET Yagona energiya tizimi | **YET** (Yagona elektr tizimi) (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “Oʻzkimyosanoat” AJ |
| 26. | Инвентаризация | Oʻzbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va oʻtkazish”ni tasdiqlash haqida OʻzR Iqtisodiyot va moliya vazirining buyrugʻi, 12.08.2024-yilda roʻyxatdan oʻtgan, roʻyxat raqami 3548. | Inventarizatsiya (*nem. Inventarization <lot. Inventarium – roʻyxat, roʻyxatga olish*) – korxona, muassasa kabilarning ixtiyoridagi ashyolarning mavjudligi, qanday saqlanayotganligi, ombor xoʻjaligi boʻyicha maʼlumotlarni davriy ravishda tekshirishdan oʻtkazish, yoʻqlama qilish. | Roʻyxatga olish | **Xatlov** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; oʻzbek tilida bu maʼnoda qoʻllanadi) | Adliya vazirligi |
| 27. | Интерактив | Interaktiv usullardan foydalanib, samaradorlikni oshirish mumkin. (ijtimoiy tarmoqdan olindi) | Interaktiv (ing. inter – oʻzaro, birgalikda; act – harakat qilmoq) – hamkorlikka asoslangan taʼlim turi. | Hamkorlik | **Interfaol** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 28. | Ирригация | Suvsiz yerlarga suv chiqarish, dalalarni, ekin maydonlarini sugʻorish ishlari. Irrigatsiya inshootlari. Respublikamizda irrigatsiya va melioratsiya hamda yangi yerlarni oʻzlashtirish darajasi benihoya yuqori. | Irrigatsiya (lot. irrigatio – sugʻorish) – oʻsimliklarni oqizib yoki tomchilatib sugʻorish. | Sugʻorish | **Sugʻorish** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Suv xoʻjaligi vazirligi |
| 29. | КВФ (Карусельный вакуумный фильтр) | Aylanma vakuum filtri katta zarrachalarni oʻz ichiga olgan suspenziyalarni ajratish uchun moʻljallangan. U choʻkmani uzoq vaqt va yaxshilab chayish kerak boʻlgan hollarda ham qoʻllaniladi. | Texnologik yarim tayyor mahsulotni filtrlab beruvchi aylanma vakuum uskuna. | AVF (Aylanma vakuum filtri) | **AVF** (Aylanma vakuum filtri) (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “Oʻzkimyosanoat” AJ |
| 30. | Комментарий | Kommentariy yozmoq, kommentariy yozishni oʻchirib qoʻyish (ijtimoiy tarmoqdan olindi) | Commentary (ing.) – hodisa yoki vaziyat haqida fikr bildirish yoki tushuntirish berish. | Sharh | **Sharh, izoh** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 31. | Коммуникация | Axborot-kutubxona faoliyati atamasi | Komminikatsiya (ing. commini-cation – aloqa) – maʼlum bir signallar orqali maʼlumot yetkazish jarayoni. | Muloqot | **Aloqa** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Madaniyat vazirligi |
| 32. | Копирайтинг | Koʻpchilik kopiraytingni arzon-garov toʻlov evaziga ishlaydigan talabalar yoki uy bekalari yozadigan va hech qanday qiymatga ega boʻlmagan matn deb tushunadi. | Kopirayting (ing. Copywrithing – matn yozish) – kuchli, taʼsir qiluvchi, harakatga undovchi matnlar orqali biznes muammolariga yechim berish. Yechimlar esa mijozlar ishonchini qozonish va sotuvlarni oshirish orqali paydo qilinadi. | Tijorat matnlarini yaratish, matn tuzish | **Tijoriy matn yozish** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 33. | Криптовалюта | Yoshlar oʻrtasida elektron savdo, treyding, kriptovalyuta va koʻplab internet bilan uzviy bogʻliq | *Kripto* (ing. shifrlash) + *valyuta* (lot. qadr-qiymat) – raqamli pul. | Raqamli valyuta | **Kriptopul** (terminologik tushunchani | Jamoatchilik taklifi |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | moliyaviy mavzular ko‘paymoqda. | | | ifodalay oladi) | |
| 34. | Лайфхак | “Xotiraga layfhaklar”. (ijtimoiy tarmoqdan olindi) | Layfhak (ing.) – foydali maslahat, ayyorlik. | Sara yechim | **Sarayechim** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 35. | ЛВФ (Ленточный вакуумный фильтр) | Tasmali vakuum filtrlar doimiy ishlovchi filtrlar turiga kiradi. Agregatlari gorizontal ishlaydigan sirtga ega, bu drenaj moslashuvchan cheksiz lenta hisoblanadi. Tasma rezina matodan qilingan hamda haydovchi va kuchlanish barabanlari o‘rtasida joylashgan vakuum kameralaridan o‘tib ishlaydi. | Yarimtayyor mahsulotni filtrlovchi tasmali vakuum uskunasi. | TVF (Tasmali vakuum filtri) | **TVF** (Tasmali vakuum filtri) (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “O‘zkimyosanoat” AJ |
| 36. | Лимит | To‘plamning limit nuqtasi, funksiya limiti. (tpdu.uz sahifasidan olindi) | Limit (lot. limes – chek, chegara) – muayyan narsa yoki ashyoning belgilangan me’yor darajasi. | Cheklov | **Me’yoriy chegara** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 37. | Листогибочный станок | Qatlamli metall buyumlar ishlab chiqaruvchi korxonalarning yuqori talablari tufayli mexanik va pnevmatik presslarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo‘lgan listli metallarni egib beruvchi uskuna ishlab chiqarish boshlandi. | Taboqli (listli) metallarni egib beruvchi uskuna – bu ishlab chiqarish maqsadlarida, asosan, metall lavha mahsulotlarini bukish uchun ishlatiladigan mashina. | Taboq (list) eguvchi uskuna | **Taboq (list) eguvchi uskuna** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “O‘zkimyosanoat” AJ |
| 38. | Миксер | Mikser zamonaviy oshxona qurilmasi bo‘lib, u meva hamda boshqa mahsulotlarni aralashtirish, ko‘pirtirish uchun mo‘ljallangan. (ijtimoiy tarmoqlardan olindi) | Mikser (ing. mixer – aralashtirgich) – u yoki bu narsani aralashtirib beruvchi qurilma. | Aralashtirgich, ko‘pirtirgich | **Qorgich** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; shaklan ixcham) | Jamoatchilik taklifi |
| 39. | Негатив | Og‘zaki nutqda va ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez qo‘llanadi. | Negative (lot.) – manfiy, salbiy | Salbiy, negative odam – qorafikr odam | **Salbiy** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 40. | Палатка | Sayohatga chiqayotganingizda palatka olishni unutmang. (ijtimoiy tarmoqlardan olindi) | Dala-tog‘ sharoitida vaqtincha turish, tunash uchun tiklanaladigan boshpana. | Palatka | **Chodir** (terminologik tushunchani | Jamoatchilik taklifi |
| | | | | | ifodalay oladi) | |
| 41. | ПДО (предельно допустимый отход) | Ruxsat etilgan maksimal atmosfera havosi uchun belgilangan kvotalardan oshmaydigan, ma’lum vaqt birligida chiqindilardagi ifloslantiruvchi moddalar massasi. | Atrof-muhitga zarar keltirmaslik uchun ruxsat etilgan, qonuniy me’yordagi chiqindi miqdori, massasi. | RECh (Ruxsat etilgan chiqindilar) | **MECh** (Man etilmagan chiqindilar) (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “O‘zkimyosanoat” AJ |
| 42. | Пенапласт | Og‘zaki nutqda va ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez qo‘llanadi. | Пенапласт (rus. пено – po‘kak + пласт – polimer modda) – qurilish xomashyosi. | Po‘kak | **Po‘kak** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 43. | Пенаблок | Og‘zaki nutqda va ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez qo‘llanadi. | Пенаблок (rus. пено – po‘kak + ing. bloc – bo‘lak) – qurilish xomashyosi. | Po‘kak g‘isht | **Po‘kak g‘isht** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 44. | Пеня | Soliq va soliqqa oid hujjatlarda uchraydi. | Penya (lot. poena – jazo, qiynoq) – shartnomaviy yoki huquqiy qarzlarning kechikishi yoxud buzilishini jazolash uchun belgilangan mablag‘; shartnomada ko‘rsatilgan muddatda to‘lanmagan yoki kechiktirib to‘langan pul yoki xizmat uchun olinadigan jazo mablag‘i. | Kechikma | **Kechikma puli** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi |
| 45. | Полигон ТБО (твердые бытовые отходы) | Turarjoy va jamoat binolari, savdo, ko‘ngilochar, sport va boshqa korxonalarda hosil bo‘ladigan chiqindilar, mahalliy isitish moslamalari chiqindilari, hovlilardan chiqqan katta hajmli chiqindilar hisoblanadi. | Qattiq maishiy chiqindilar – turarjoy, jamoat binolari, savdo do‘konlari, ko‘ngilochar maskanlar va boshqa korxonalardan chiqadigan chiqindilar. | QMCh poligoni (Qattiq maishiy chiqindilar) | **QMCh maydoni** (Qattiq maishiy chiqindilar) maydoni (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “O‘zkimyosanoat” AJ |
| 46. | Пробел | Axborot-texnologiyalari atamasi. | Probel (rus. про- old qo‘shimcha + белый – oq) – ikki so‘z orasida qoldiriladigan bo‘shliq, oraliq joy. | Bo‘shliq, orachiq | **Bo‘shliq** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 47. | Раковина | “Nima uchun vannaxonaga kirib yig‘lab yurmadi, oshxonadagi rakovinaga engashib ho‘ngramadi, tashqariga chiqib ketib yolg‘iz | Rakovina (rus. chig‘anoq, chanoq) – uy-ro‘zg‘or buyumi. | Chig‘anoq, chanoq | **Chanoq** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| | | aylanib yurmadi, devorga idishlarni otib sindirmadi?” (Elif Shafaq, Ishqqa oid qirq qoida) | | | | |
| 48. | Распродажа | Savdo nuqtalarida xaridor chaqirish maqsadida yozib qo‘yiladi. | *Распродажа* (rus.) – sotib bitirish, sotib tugatish. | Sotib tugatish, ulgurji, ko‘tarasiga | **Arzonsotuv** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 49. | Реванш | Bahodir Jalolov revansh talab qildi. | Revansh (fr. revanche – qasos, mag‘lubiyat to‘lovi) – mag‘lubiyat uchun qayta kurash. | Qayta kurash, qayta jang | **Qayta kurash** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 50. | Реелс | Milliylikni targ‘ib qiluvchi bir nechta reelslarni ko‘rib chiqib, yangi reels uchun g‘oya topish kerak. | Reels (ing.) – qisqa video. | Qisqa video | **Qisqa lavha** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 51. | Рубильник | Energetika sohasi hujjatlarida ko‘p uchraydi. | Rubilnik (rus. uzmoq, kesmoq) – katta kuchlanishli tokni uzuvchi va ulovchi qurilma. | Uzgich | **Uzgich** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 52. | СБ (Сушилка барабанная) | Baraban quritkich, asosan, qurilish materiallari, minerallarni qayta ishlash, metallurgiya, kimyo sanoatida qo‘llaladi. | Rus tilidan olingan. Barabanli quritgich. Yuvilgan yoki yuvilmagan fosforit rudasini tabiiy gazni yoqish evaziga qurituvchi uskuna. | BQ (Barabanli quritkich) | **BQ** (Barabanli quritkich) (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | “O‘zkimyosanoat” AJ |
| 53. | СИ (Сунъий интеллект) | “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–358-sonli qarori (14.10.2024). | Sun’iy intellekt (ing. artificial intelligence, AI –“sun’iy intellekt”) – inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi. | SO Sun’iy ong | **SI** (Sun’iy intellekt) (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi |
| 54. | Симптом | Kasallik simptomlari aniqlandi. (ijtimoiy tarmoqdan olindi) | Simptom (yun. Symptome – belgi, alomat) – biror kasallik yoki patologik holatning belgisi. | Belgi, alomat | **Belgi, alomat** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 55. | Суғориш режими | Sug‘orish rejimi sug‘oriladigan yerlarda ekinlardan yuqori va barqaror hosil olishni, yer va suvdan samarali foydalanishni | Sug‘orish rejimi – almashlab ekish tarkibidagi ekinlarga suv berish normasi, muddati va sonini optimal uyg‘unlashtirish; muayyan | Sug‘orish tartibi | **Sug‘orish tartibi** (terminologik tushunchani | Suv xo‘jaligi vazirligi |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | ta'minlaydi. (Ahmedov X.A. Sug'orish melioratsiyasi, T., 1977) | sharoitlarda ekinlardan eng yuqori hosil olishni ta'minlaydi. | | ifodalay oladi) | |
| 56. | Суфлёр | San'at va madaniyat atamasi. | Suflyor (fr.: *souffleur*, souffler – puflamoq, nafas olmoq; sekin aytib turmoq) – sahna ortida turib, aktyorga rolining so'zlarini aytib beruvchi teatr xodimi. | Shivirchi, pichirlovchi | **Shivirchi** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Madaniyat vazirligi |
| 57. | Транскрипт | Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori. | Transkript (ing. transcript – ko'chirilgan matn) – ta'limning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning yozma ifodasi bo'lib, unda o'rganilgan fan va ballar ko'rsatiladi. | Bahonoma (oliy ta'lim tizimida qo'llanadi) | **Bahonoma** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi |
| 58. | Тренинг | "AI-boshqaruv o'qituvchilarni rivojlantirish treningi: Texnologiyalarni kengaytirish" dasturi (ijtimoiy tarmoqdan olindi) | Trening (ing. training – ta'lim, malaka oshirish, mashq) – kadrlar malakasini oshirish uchun tajribali mutaxassis tomonidan o'tiladigan mashg'ulot. | Mashg'ulot, malaka oshirish | **Mashg'ulot** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 59. | Фитнес | Ayollar qomatini saqlash uchun fitness zallariga qatnashi kerak. | Fitnes (ing. *fitness* – moslik, moslashish) – tana tuzilishini chiroyli qilish, jismoniy sog'lom bo'lish uchun mo'ljallangan jismoniy mashg'ulot. | Kunlik mashqlar, tana shakli uchun harakatlar, moslashtirish, shakllantirish | **Badantarbiya** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 60. | Фитосанитария | Fitosanitariya sertifikati – karantin ostidagi mahsulotda o'simliklar karantini obyektlari mavjud emasligini tasdiqlovchi xalqaro namunadagi hujjat. | Fitosanitariya (fr. phyto + sanitaire – "santé des plantes") – o'simliklar va o'simlik mahsulotlari uchun zararli organizmlarning kirib kelishi, paydo bo'lishi yoki tarqalishi natijasida yuzaga keladigan xavflardan himoya qilish, atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni amaliyotda qo'llash). | O'simlik va o'simlik mahsulotlarini turli xavflardan himoya qilishga qaratilgan choralar | **Fitohimoya** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | O'simliklar karantini va himoyasi agentligi |
| 61. | Фостер оила | Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentyabrdagi 824-son qarori. | Foster oila (ing.) – bir yoki bir necha bolani o'z qarmog'iga olgan oila. | Tutingan oila, parvarishlovchi oila, g'amxo'rlik qiluvchi oila | **Vasiy oila** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Oila va xotin-qizlar qo'mitasi |
| 62. | Фрилансер | Frilanser bo'lib ishlashning afzalliklari juda ko'p, ammo bu yo'nalish o'zini tanitish, ish jarayonini tashkil etish va moliyani boshqarishda kuch sarflashni talab qiladi. (mohirdev.uz blogi) | Frilanser (ing. freelancer) – yollanma ishchi, odatda, o'zini o'zi ish bilan ta'minlovchi, ish beruvchiga bog'lanib qolmagan, o'z xizmatini masofadan taklif etib ishlovchi kishi. | Yollanma ishchi, o'zini ish bilan ta'minlovchi | **Erkin ishchi** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 63. | Фумигация | Fumigatsiya – o'simliklar karantini obyektlarini va boshqa zararli organizmlarni yo'q qilish maqsadida ularni kimyoviy vositalarning gazlari bilan zararsizlantirish. O'zbekiston Respublikasining "O'simliklar karantini to'g'risida"gi Qonuni. | Fumigatsiya (lot. fumigation – dudlash) – o'simliklar karantini obyektlari, boshqa zararli organizmlarni yo'q qilish maqsadida ularni kimyoviy vositalarning gazlari bilan zararsizlantirish. | O'simliklarni kimyoviy zararsizlantirish | **Kimyoviy zararsizlantirish** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Karantin agentligi |
| 64. | Хештег | Ushbu xabarga # – xeshteg qo'yishni unutmang. (ijtimoiy tarmoqdan olindi) | Xeshteg (ing. hashtag – xesh belgisi) – ijtimoiy tarmoqlarda xabarlarni guruhlash uchun ishlatiladigan belgi. | Teg, belgi, kalit so'z | **Kalitso'z** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Jamoatchilik taklifi |
| 65. | Хостел | Joylashtirish xizmatlarini ko'rsatish va xostellar tashkil etish tartibi tasdiqlandi. | Xostel (fr.: hostel – *uy, boshpana*) – yosh sayyohlar uchun mo'ljallangan, arzon yashash joyi bo'lib, u yerda ko'pincha yotoqxona uslubidagi o'rin-joylar taklif qilinadi, ba'zan esa oziq-ovqat va rejalashtirilgan tadbirlar ham tashkil qilinadi. | Qo'noqxona | **Qo'noqxona** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Adliya vazirligi |
| 66. | Эможи | Menga kulgan emoji yuboribdi. (ijtimoiy tarmoqdan olindi) | Emoji (ing. – yuz ifodasi) – imo-ishora. | Ishora | **Imo** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; shaklan ixcham) | Jamoatchilik taklifi |